

**20__-yil _____dagi _____-sonli
mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga
____-sonli qo'shimcha kelishuv**

20__ yil «__» _____

_____ shahri

08.09.2014-yildagi AA 0005149-sonli “Mahalliy, shaharlararo va xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish hamda mahalliy va shaharlararo aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun”; 08.09.2014-yildagi AA 0005151-sonli “Xalqaro telekommunikatsiyalar tarmoqlari xizmatlarini ko'rsatish uchun”; 08.09.2014 yildagi AA 0005152 sonli “Ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularning xizmatlarini ko'rsatish uchun”; 08.10.2019 yildagi AA 0006976 sonli “ma'lumotlar uzatish tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va xizmatlarni ko'rsatish uchun” litsenziyalari asosida faoliyatini amalga oshiruvchi “Universal Mobile Systems” mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi “UMS” MChJ), savdo belgisi – “MOBIUZ” (keyingi o'rinlarda – “Operator”), _____ asosida ish olib boruvchi

_____ bir tomondan va keyingi
o'rinlarda “Abonent” deb ataluvchi

_____ asosida ish olib boruvchi _____ ikkinchi tomondan (birgalikda “Taraflar”, alohida “Taraflar” deb ataladi) quyidagilar to'g'risida mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish shartnomasiga ushbu Qo'shimcha kelishuvni tuzdilar:

1. Zarur hollarda, Abonent tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yagona davlat xizmatlari portalida xizmatlardan foydalanish jarayonida, Abonentning vakolatli xodimi shaxsini MyID biometrik identifikatsiya tizimi orqali identifikatsiya/autentifikatsiya qilish maqsadida, Abonent amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilgan holda quyidagilarga majbur bo'ladi:

- 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha yozma ariza berish;
- 2-ilovaga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik olinishini ta'minlaydi;
- jismoniy shaxsning abonent xodimi ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani (Yagona milliy mehnat tizimi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali berilgan) taqdim etishi shart.

2. Shaxsga doir ma'lumotlar abonent yoki shaxsga doir ma'lumotlar egasi chaqirib olgunga qadar Operator tomonidan saqlanadi va qayta ishlanadi.

3. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish Operator tomonidan “Raqamli hukumat” tizimi negizida Yagona portal bilan ma'lumotlar almashish orqali amalga oshiriladi, uni axborot, uslubiy, texnik qo'llab-quvvatlash va ma'muriy jihatdan boshqarish “Uzinfokom” kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

4. Abonent shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish tartibini buzganlik uchun amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikni mustaqil ravishda o'z zimmasiga oladi.

5. Abonent O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq har qanday xavf va oqibatlar uchun mustaqil ravishda javob beradi.

6. Abonent xodim ishdan bo'shatilganda yoki boshqa sabablarga ko'ra jismoniy shaxs - Abonent xodimining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishni to'xtatish zarurligi to'g'risida Operatorni o'z vaqtida xabardor qilish majburiyatini oladi.

7. Operator Abonent yoki shaxsga doir ma'lumotlar egasi oldida abonent raqamidan foydalanish yoki foydalana olmaslik bilan bog'liq har qanday zarar, daromad, foyda, axborot yoki jamg'armalarning har qanday yo'qolishi, shuningdek, ushbu kelishuvning bajarilishi to'xtatilgan hollarda javobgar bo'lmaydi.

8. Mazkur Qo‘shimcha kelishuv Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va Shartnomaning butun amal qilish muddati davomida amal qiladi.

9. Mazkur Qo‘shimcha kelishuv 2 nusxada, har bir tomon uchun bittadan tuzildi, ikkala nusxa ham bir xil yuridik kuchga ega.

OPERATOR

«UMS» MChJ

O‘zbekiston Respublikasi, 100000,

Toshkent, Yunusobod tumani,

Amir Temur shoxko‘chasi, 24

STIR: 303020732

OKED 61200

ABONENT

M.O‘.

M.O‘.